

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MAHALLIY BUDJET DAROMADLARI MANBASINI SHAKLLANTIRISH ASOSLARI

Sharopov Dilshodjon Raxmatullayevich –

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, mustaqil tadqiqodchisi

Annatatsiya: Ushbu maqolada mahalliy budjet daromadlari manbasini shakllantirish va soliq solish bazasini kengaytirish jarayonida shaffoflik, qonunchilikka rioya qilish va samaradorlikni oshirishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: mahalliy budjet, mahalliy soliq va yig'imlar, soliq ma'muriyatchiligi, mahalliy soliq va yig'imlar manbasi, soliq to'lovchilar.

Аннотация: В этой статье рассматривается процесс формирования источников доходов местных бюджетов и расширения налоговой базы, направленный на повышение прозрачности, соблюдение законодательства и эффективности.

Ключевые слова: местный бюджет, местные налоги и сборы, налоговое администрирование, источники местных налогов и сборов, налогоплательщики.

Abstract: This article discusses the process of forming local budget revenue sources and expanding the tax base, aimed at increasing transparency, ensuring compliance with legislation, and enhancing efficiency.

Keywords: local budget, local taxes and fees, tax administration, sources of local taxes and fees, taxpayers.

Erkin iqtisodiyot sharoitida jamiyat taraqqiyotining iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan barqaror rivojlanishi, avvalo, davlatning bozor munosabatlarini tartibga solishdagi samarali va maqsadli ishtirokiga bevosita bog'liqdir.





Bunday sharoitda davlatning iqtisodiy siyosatini shakllantirish va amalga oshirish jarayoni murakkab, biroq hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan masala sifatida namoyon bo'ladi. Bu jarayonda qabul qilinadigan boshqaruv mexanizmlari, tanlangan uslub va vositalar, shuningdek, milliy iqtisodiyotning ichki salohiyati hamda unga xos tarkibiy xususiyatlar e'tiborga olinishi zarur.

Natijada, bozor iqtisodiyotida barqaror iqtisodiy muhitni shakllantirish, samarali moliyaviy munosabatlarni yo'lga qo'yish, davlat boshqaruvining iqtisodiy, ma'muriy, tashkiliy hamda ijtimoiy-psixologik usullarini takomillashtirish davr talabi bo'lib qolmoqda.

Shuningdek, ushbu usullar ichida ayniqsa iqtisodiy yondashuvlar, xususan, budget-soliq siyosati, iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning ustuvor va samarali vositasi sifatida alohida o'rin tutadi.

Soliqlar – iqtisodiyotni tartibga solishning asosiy moliyaviy vositasi hisoblanadi. Ularning davlat budjeti daromadlarini shakllantirishdagi o'rni, tarkibiy tuzilishi, bevosita va bilvosita soliqlar nisbati, soliq imtiyozlari va yuklamalarning darajasi mamlakatning iqtisodiy tuzumi, siyosiy-iqtisodiy rivojlanish holati hamda mulkchilik va ishlab chiqarish munosabatlari bilan belgilanadi.

Mamlakatimizda 2020-yildan 1-yanvardan boshlab O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va Xalq deputatlari mahalliy kengashlarining budget sohasidagi vakolatlarini kengaytirish, budget mablag'larini taqsimlovchilarning mas'uliyatini yanada oshirish, mahalliy budget daromadlarini shakllantirish va mablag'laridan foydalanishda mahalliy davlat xokimiyati organlarining erkinligini ta'minlashga qaratilgan yangi budget tizimi joriy etildi. Ilk bor, "2020-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni bilan mahalliy budget xarajatlari xalq deputatlari mahalliy kengashlari tomonidan tasdiqlanishi belgilab qo'yildi.



Umumdavlat pul mablag'larining budget bo'g'inlari o'rtasida taqsimlanishi mahalliy budget mustaqilligi, ularni moliyaviy qo'llab-quvvatlash va daromadlarni hududiy manbalar asosida shakllantirish tamoyillariga asoslanadi. Shu asosda mahalliy budgetlar daromadlari ikki qismdan – o'z daromadlari va boshqariladigan manbalar hisobidan tashkil topadi. O'z daromadlari to'liq yoki belgilangan ulushda mahalliy budgetga tushadigan mablag'lar bo'lib, ularning asosini mahalliy soliqlar va yig'imlar tashkil etadi.

Shunga muvofiq mahalliy budget daromadlari o'z daromadlari (mahalliy soliq va yig'imlar) va yuqori budgetdan ajratiladigan ajratmalar (transfert mablag'lar) hisobidan shakllanadi. Mahalliy budgetning eng birinchi daromad manbai bo'lib mahalliy soliq va yig'imlar hisoblanadi. Bu daromad turlari qonunchilikka asosan mahalliy budgetga to'liq biriktirilgan daromad manbai hisoblanadi.

Mahalliy soliq mahalliy budget tarkibida birinchi moliyaviy manba sifatida qaralsa ham, bu soliq mahalliy budgetga biriktirilgan xarajatlarini moliyalashtirishda yetarli moliyaviy manba bo'la olmaydi.

Budget parametrlarini belgilash vaqtida umumdavlat solig'idan ajratmalar belgilanadi. Bu jarayon har yili budget parametrlarini tasdiqlash paytida ishlab chiqiladi va Prezident qaroriga muvofiq belgilanadi va tasdiqlanadi. Umumdavlat solig'idan ajratmalar ulushi har yili mahalliy budgetning o'z daromadlarining tushumi hamda ular tomonidan amalga oshiriladigan xarajatlarning miqdoriga qarab o'zgartirilib boriladi. Umumdavlat solig'ining muhim xususiyati shundaki, respublika budgetiga tushadigan soliqdan mahalliy budgetni boshqarib borish uchun ajratma sifatida tushishi mumkin. Agar kelgusi yili mahalliy budgetning o'z daromad manbalari (solig'i) ko'payib qolsa, umumdavlat solig'idan ajratma berishning hojati qolmaydi.

Umumdavlat va mahalliy soliq yagona mohiyatga ega bo'lib, budgetga to'lanishi lozim bo'lgan to'lovdir. Shu bilan birga, umumdavlat solig'ining ayrim



turlari ham mahalliy budjetni to'ldirish manbai sifatida mahalliy budjet ixtiyorida qoldirilishi maqsadga muvofiqdir.

O'zbekiston Respublikasining budjet kodeksining 7-moddasida budjet tizimining asosiy prinsiplari belgilangan bo'lib, unga muvofiq budjetni shakllantirishda budjet tizimi budjetining balansliligi va o'zaro bog'liqligini ta'minlash shart. Respublika budjetidan transfert mablag'lar Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar budjetiga tasdiqlangan Davlat budjeti doirasida ajratiladi. Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti, viloyatlar va Toshkent shahar budjetidan budjet subsidiyalari tumanlar va shaharlar budjetiga tegishli tasdiqlangan budjet doirasida ajratiladi.

Mahalliy budjetning bu daromad turining o'ziga xos tomonlari mavjuddir. yuqori budjetdan ajratiladigan subvensiya va subsidiyalar boshqa daromad turlaridan farq qilib, bu daromad turlari yil boshida tasdiqlangan reja miqdorida olinadi, ya'ni bu daromad turlariga yil davomida o'zgartirishlar kiritilmaydi.

Mahalliy soliqlarning budjetga to'liq tushishini tashkil qilish ularning zimmasidagi asosiy vazifa hisoblanadi. Respublikamiz iqtisodiyotida davom etayotgan iqtisodiy islohatlar davrida soliqni iqtisodiy barqarorligini ta'minlovchi muhim vosita sifatida ularni doimiy isloh qilib borishni talab qiladi. Hozirgi kunda aholi daromadlarining salmoqli hissasi xususiy sektorda shakllanmoqda. Davlat tomonidan bu daromadlarni boshqarish imkoniyatlari cheklangan, bu daromadlarni ma'muriy tarzda davlat xarajatlariga yo'naltirish bozor iqtisodiyoti prinsiplariga ziddir.

Mahalliy davlat xokimiyati organlarining faoliyatiga bevosita bog'lik bo'lgan hamda to'liq mahalliy budjet ixtiyorida qoldiriladigan daromad turlari kengaytirildi. 2020-yildan boshlab barcha davlat maqsadli jamg'armalari va chetdan jalb qilingan tashqi qarz mablag'lari xisobidan amalga oshirilayotgan davlat xarajatlari konsolidatsiyalashgan davlat budjetida aks ettirilib, budjet qamrovi va ochiqqligi darajasi kuchaytirildi. Xalqaro standartlarga muvofiq umumiy fiskal balansining hisobini yuritish yo'lga qo'yildi. Chunki mahalliy



budjet barqaror daromad bazalariga ega bo'lsa, ular xizmat kiluvchi mahalliy hududlar doirasida iqtisodiy islohotlarni moliyaviy jihatdan ta'minlashda muammolar bo'lmaydi hamda mavjud muammolar osonlik bilan hal etiladi.

Mahalliy budjet daromadlari manbalarining tarkibi quyidagi asosiy qismlarga bo'linadi:

Soliq tushumlari: Belgilangan normativlarga muvofiq, foyda, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad, aksiz, yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqlar; Suv resurslaridan foydalanganlik uchun solig'i; Mol-mulk solig'i; Yer solig'i; Qurilish materiallari bo'yicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq; Aylanmadan olinadigan soliq;

Soliqqa oid bo'lmagan daromadlar: Jarimalardan tushumlar; Davlat xizmatlari uchun yig'imlar va davlat bojlari.

Transfertlar va subsidiyalar: Yuqori budjetlardan ajratiladigan subvensiyalar va subsidiyalar; Tenglashtiruvchi transfertlar.

Boshqa daromadlar: Davlat mulkini sotish va ijaraga berishdan tushumlar; Yuridik va jismoniy shaxslardan, shuningdek chet davlatlardan tushgan qaytarilmaydigan pul tushumlari; Egasiz mol-mulkni, meros huquqi bo'yicha davlat ixtiyoriga o'tgan mol-mulkni, davlat daromadiga o'tkazilishi lozim bo'lgan xazinalarni realizatsiya qilishdan tushgan tushumlar; Mahalliy davlat hokimiyati organlarining ulushi bo'yicha dividendlar (daromadlar) va qonunchilikka muvofiq boshqa daromadlar kiradi.

Mahalliy budjet daromadlarini mustahkamlash uchun mahalliy hokimiyatlarning soliq undirishdagi faolligini va soliq bazasini kengaytirishga bo'lgan qiziqishini rag'batlantirish muhimdir.

Bu borada, hududlar soliq siyosatining salohiyati, avvalo, amaldagi budjetga yo'naltirilishi mumkin bo'lgan real daromadlar hajmiga bog'liqdir. Soliq siyosati, huquqiy nuqtai nazardan, soliq va yig'imlarning to'g'ri hisoblanishi va ularning budjetga undirilish darajasini ifodalaydi.





Umumiy ma'noda esa, u hududlarning soliqqa tortiladigan resurslari va yig'implarni jalb qilish imkoniyatlari bilan belgilanadi. Soliq siyosati ko'p hollarda mahalliy budjetga tushadigan soliq daromadlari orqali hududning moliyaviy salohiyatini belgilaydi.

Mamalakatimizda hududiy soliq tizimini iqtisodiy taraqqiyotning ehtiyojlariga moslashtirish zarur bo'ladi. Bunda mahalliy budjet tizimiga oid muammo va masalalarni hal qilish kerak.

Mahalliy budjet daromadlarini prognoz qilishda hududning moliyaviy imkoniyatlari va soliq salohiyati e'tiborga olingan holda, mahalliy soliq va yig'implardan kutilayotgan tushumlarni aniq belgilash zarur. Tizimli rejalashtirish usullari mahalliy budjet daromadlarini real va asosli prognozlashtirish imkonini yaratadi.

Mahalliy hokimiyat organlari mahalliy budjet daromadlarini oshirish uchun quyidagi moliyaviy mablag'larni barqarorligini ta'minlash zarur deb hisoblaymiz. Jumladan:

- soliq va soliqsiz to'lovlar;
- ixtiyoriy mulkiy boyliklardan olinadigan daromadlar;
- milliy va xalqaro moliya bozoridan jalb qilinadigan mablag'lar;
- hududlar iqtisodiy salohiyatidan foydalangan holdagi daromadlar;
- hududlardagi milliy boylik vositalaridan foydalanish natijasida olingan daromadlar;
- milliy jamg'armalar;
- mahalliy budjetlarga biriktirilgan soliqlar;
- xususiy lashtirish va ijara to'lovlari;
- qimmatli qog'ozlar bozoridan daromadlar;
- hududlarning rivojlantirish uchun yo'naltirilgan boshqa shakldagi daromadlar.

O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot jarayonida aholining turmush darajasini oshirish, hududlar iqtisodiy faolligini kuchaytirish va ishlab chiqarish



samaradorligini yuksaltirishga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda. Bu yo'nalishda faoliyat yurituvchi korxonalarni moliya-kredit mexanizmlari orqali qo'llab-quvvatlash muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, soliq tizimida joriy etilgan rag'batlantiruvchi rejimlar korxonalarning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Mahalliy budjet tizimini samarali boshqarish uchun uning boshqaruv ob'ektlariga xos xususiyatlarni aniqlash ilmiy-nazariy jihatdan muhim hisoblanadi. Xususan, mahalliy budjetlar daromad qismining o'ziga xos jihatlari quyidagilarda ifodalanadi:

- asosiy daromad manbalari sifatida mahalliy soliq va yig'imlar hisobidan soliq tushumlarini mintaqaviy standartlar asosida undirish;
- hududlarga mustaqillik berish orqali soliq stavkalari va imtiyozlarining chegarasini belgilash;
- soliq turlari bo'yicha tushumlarni aniq xarajat yo'nalishlari bo'yicha taqsimlash;
- mahalliy budjet daromadlarida transfertlar salmoqli ulushni egallashi.

O'zbekistonning oldida turgan muhim vazifalardan biri — hududlar iqtisodiyotining samaradorligini va raqobatbardoshligini oshirish, uni modernizatsiya qilish va barqaror rivojlanishini ta'minlashdir. Bu jarayonda, hududlar iqtisodiy o'sishining past sur'atlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish maqsadlariga erishishni qiyinlashtiradi. Shunga qaramasdan, moliya va budjet siyosatini qayta shakllantirish va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish uchun qayta konfiguratsiya talab qilinadi. Ushbu muammolarni hal qilishda mahalliy budjetlar katta ahamiyatga ega.

Hududlar budjet siyosatining asosiy maqsadlari fuqarolarning sifatli davlat va kommunal xizmatlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish orqali ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, budjet balansi va barqarorligini saqlash, shuningdek, aholining turmush darajasi va sifatini oshirishdan iboratdir.



Mahalliy budjet vakolatlari doirasida aholiga eng yaqin bo'lgan hokimiyat organlari, ularning muammolarini hal qilish orqali hududiy rivojlanishda muhim rol o'ynaydi. Aholi, ko'p hollarda, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining samaradorligini mahalliy hokimiyat organlari faoliyatini baholaydi.

Shuning uchun hududlar o'z moliyaviy bazasini mustahkamlash va ularning o'z daromadlarini oshirish uchun ichki zaxiralarni topishga qiziqishini oshirish muhimdir. Bunga mahalliy budjet daromadlar bazasining muhim manbalari, yani soliq va yig'imlar tushumlarini oshirish imkoniyatlarini yaratish orqali erishish mumkin. Hududiy hokimiyatlar o'z-o'zini ta'minlash tizimini shakllantirish uchun barcha resurslardan foydalanishlari kerak.

Fikrimizcha, mahalliy soliqqa tortish tizimi isloh qilish orqali erishish mumkin. Ushbu muammolarni hal qilish uchun muhim manba hududlarning soliq salohiyatini kengaytirish va maksimal darajada ishlatish bo'lishi kerak.

Hudud budjetlarining daromad qismini shakllantirishda yerlar va mol-mulk ob'ektlaridan foydalanish, ularni hisobga olish muhim manba hisoblanadi. Mahalliy budjetlar daromadlarini safarbar etishda soliq tushumlarini oshirish asosiy omildir.

Mahalliy budjet daromadlarini mustahkamlash hozirgi budjet islohatlarining asosiy maqsadi bo'lib, aylanma soliqlar, mol-mulk solig'i, yer solig'i va tabiiy resurslardan olinadigan soliqlar eng muhim manba sifatida xizmat qiladi. Shuningdek, mahallabay tizimi orqali yangi soliq ob'ektlarini aniqlash ham samarali manba hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. 2022-yil 20-dekabr kungi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi.
2. O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 24-dekabrdagi O'RQ-1011-son Qonuni.





3. Sh.M.Mirziyoyev. “Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy baxodir”. - T: “O‘zbekiston”, 2018. - 123 bet.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2022-yil 20- dekabr kungi oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-dekabrda PF-6121-son «Resurs solig‘i va mol- mulk solig‘ini yanada takomillashtirish to‘g‘risida» Farmoni.

6. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya Vazirligining rasmiy sayti <https://www.imv.uz/>.

7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi soliq qo‘mitasining rasmiy sayti <https://soliq.uz/>.